FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

UMARALIYEVA NARGIZA TASHKINBAYEVNA

BOSHQARUV FUNKSIYALARI TURLI CHEGARALANISHLI DINAMIK O‘YINLAR VA ULARNING ANIMATSION MODELLARI

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

UDK: 517.977.5:519.837.2

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

UMARALIYEVA NARGIZA TASHKINBAYEVNA

BOSHQARUV FUNKSIYALARI TURLI CHEGARALANISHLI DINAMIK O‘YINLAR VA ULARNING ANIMATSION MODELLARI

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/FM194 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (резюме)) Ilmiy kengash veb-saytida (www.fdu.uz) va « ZiyoNET» ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Samatov Baxrom Tadjiaxmatovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Mamadaliyev Numanjon** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Ibaydullayev To'lanboy Tursunboyevich fizika-matematika fanlari nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «01» 11 soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02, faks: (+99873) 244-44-93, e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (590 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19 uy. Tel.: (+99873) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «20» 10 kuni tarqatildi.
(2025-yil «17» 10 dagi 10 raqamli reestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI FARG'ONA DAVLAT ... O'ZBEKISTON

Sh.T.Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari , f.-m.f.d., dotsent

I.U.Xaydarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.n., dotsent

Yu.P.Apakov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi qarama-qarshi maqsadli dinamik tizimlar uchun matematik jihatdan modellarni qurish va ularni amaliy jarayonlarga samarali qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida bunday tizimlarni tahlil qilish uchun eng samarali vositalardan biri bu — dinamik o‘yinlar nazariyasi bo‘lib, uning yordamida qurilgan modellarni boshqaruv nazariyasi, iqtisodiyot, robototexnika, mudofaa va sun’iy intellekt kabi sohalar orqali amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, dinamik o‘yinlar nazariyasining asosiy obyekti hisoblangan qarama-qarshi boshqaruvli jarayonlarni tadqiq qilish, bu bo‘yicha boshqaruvlari turli chegaralanishlarga ega bo‘lgan diskret va differensial o‘yin masalalarini o‘rganish, matematik modellarini ishlab chiqish va ularni algoritmik shaklda yechish asosida vizual animatsiyalash orqali dinamik harakatlarni joriy vaqtda ko‘rish va tahlil qilishda animatsion modellardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasida yuzaga keladigan ko‘plab amaliy va nazariy muammolarni hal qilishda vaqt, resurs, xarajat, sifat va imkoniyatlarni optimallashtirish masalalariga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, dinamik o‘yinlarda boshqaruv funksiyalari geometrik, yig‘indi va Langenhop tipidagi turli chegaralanishli qarama-qarshi maqsadli jarayonlarni matematik tadqiq qilib, amalda qo‘llanadigan barqaror modellar tuzishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunday modellarni ishlab chiqish nazariy natijalarni real amaliy jarayonlarda qo‘llash imkoniyatini oshirmoqda. Mazkur yondashuv murakkab tizimlarda boshqaruv samaradorligini ta’minlash va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqlariga ega bo‘lgan dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor berilgan holda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Xususan, “algebra va uning tatbiqlari, differensial tenglamalar va uning tatbiqlari, chiziqsiz tizimlar, dinamik sistemalar va ularning tatbiqlarini matematik modellashtirish, stoxastik tahlil, tibbiy-biologik informatika, hisoblash matematikasi” kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan[1]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, differensial tenglamalar, dinamik sistemalar va dinamik o‘yinlar nazariyalarini takomillashtirish maqsadida diskret va differensial o‘yinlarda boshqaruvlari turli chegaralanishlarga ega bo‘lgan quvish-qochish masalalari uchun optimal strategiyalarni qurish hamda ularning animatsion modellarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi №PQ-4387 “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

to‘g‘risida”gi farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PF-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PF-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018 yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-sonli “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-sonli “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Differensial tenglamalar va uning turdosh matematik sohalarining dolzarb muammolari” dasturi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Differensial o‘yinlar nazariyasining asoslari 1940-yillarning oxirlarida R. Isaacs tomonidan RAND korporatsiyasida harbiy quvish-qochish (P-E) masalalari uchun matematik modellar ishlab chiqilishi bilan boshlangan. R. Isaacs o‘z nazariyasida klassik variatsion hisobning Gamilton–Yakobi usullarini qo‘llagan va ularni boshqaruv funksiyalari bilan belgilangan harakatlarga tadbiq qilgan. Bu g‘oyalar keyinchalik L.D. Berkovitz, W.H. Fleming, A. Friedman kabi olimlar tomonidan yanada rivojlantirilib, o‘yinlar nazariyasi va variatsion hisobning yangi usullari kiritilgan. Differensial o‘yinlardagi masalalar, axborot ustunligi qaysi tomonlama berilishiga qarab, quvish yoki qochish holatlariga bo‘linadi. Bu yondashuv masalalarining tasnifi L.S. Pontryagin tomonidan taklif qilingan va bu yo‘nalish A.A. Chikrii, N.L. Grigorenko, N.N. Petrov, M.S. Nikolskiy, N.Yu. Satimov, A.A. Azamov va boshqa olimlar tomonidan rivojlantirilgan.

Differensial o‘yinlardan tashqari, pozitsion strategiyali diskret o‘yinlar ham keng o‘rganilgan. Diskret pozitsion o‘yinlarda strategiyalar faqat joriy holatga bog‘liq bo‘lib, bu optimal strategiyalarni qurish va tahlil qilish jarayonini soddalashtiradi. Ushbu sohada R. Isaacs, L.S. Pontryagin, N.N. Krasovskiy, A.I. Subbotin, A.A. Azamov, L.A. Petrosyan va A.A. Chikrii tomonidan muhim hissalar qo‘shilgan. O‘zbekistondagi ushbu yo‘nalishdagi ilmiy maktab N.Yu. Satimov rahbarligida shakllandi. U 35 yildan ortiq vaqt davomida “Optimal boshqaruv va differensial o‘yinlar” ilmiy seminariga rahbarlik qilgan. Hozirda ushbu seminar A.A. Azamov boshchiligida olib borilmoqda. Ilmiy maktab vakillari tomonidan muhim natijalarga erishilgan. A.Z. Fazilov, B.B. Rixsiev, A.A. Xamdamov, G.I. Ibragimov, M.Sh. Mamatov, B.T. Samatov, A.Sh. Kuchkarov va N.A. Mamadaliev tadqiqotlari asosida differensial va diskret modellar doirasida quvish–qochish masalalariga samarali yechimlar topilgan.

L.A. Petrosyan taklif qilgan parallel yaqinlashish strategiyasi (П-strategiya) yordamida guruhli quvish masalalari va R. Isaacs tomonidan kiritilgan “Hayot chizig‘i” masalasiga samarali yechimlar taklif etgan. A.A. Azamov ushbu o‘yinning ko‘p quvlovchi va bitta qochuvchidan iborat holatini ko‘p qiymatli akslantirishlar orqali analitik yechgan. G.I. Ibragimov yig‘indi chegaralanishga ega chiziqli diskret quvish o‘yinlarini o‘rganib, bosqichma-bosqich strategiyalar va kafolatli yechim shartlarini aniqlagan. B.T. Samatov boshqaruv funksiyalariga integral, chiziqli, nostatsionar, Gronuoll, Langenhop tipidagi va aralash chegaralanishlar qo‘yilgan differensial o‘yinlar uchun П-strategiyani qo‘llab quvish–qochish masalalarini hal qilgan. N.A. Mamadaliyev boshqaruv funksiyalari integral cheklovlarga bo‘ysunadigan, kechikish argumentlariga ega tizimlar bilan tavsiflangan differensial o‘yinlardagi quvish va qochish masalalarini tadqiq qilgan hamda muhim ilmiy natijalarga erishgan.

Dissertatsiya mavzusining olib borilayotgan oliy ta’lim muassasasidagi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot Namangan davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasidagi “Fundamental tadqiqotlar” yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi boshqaruv funksiyalariga qo‘yilgan turli xil chegaralanishlar, jumladan, geometrik, yig‘indi va Langenhop tipidagi chegaralanishlarga ega dinamik quvish-qochish masalalarini hal qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘yinchilarning boshqaruv funksiyalari geometrik chegaralanishga ega bo‘lgan, ko‘p quvlovchi va bitta qochuvchili diskret o‘yinda quvish masalasi yechilishini kafolatlovchi yetarli shartlarni aniqlash hamda o‘yinning animatsion modelini qurish;

o‘yinchilarning boshqaruv funksiyalari yig‘indi chegaralanishga ega bo‘lgan, sodda harakatli diskret o‘yinda quvish masalasi yechilishini kafolatlovchi yetarli shartlarni aniqlash hamda o‘yinning animatsion modelini qurish;

o‘yinchilarning boshqaruv funksiyalari Langenhop tipidagi chegaralanishga ega bo‘lgan differensial o‘yinda qochish masalasi yechilishini kafolatlovchi yetarli shartlarni aniqlash;

o‘yinchilarning boshqaruv funksiyalari Langenhop tipidagi chegaralanishga ega bo‘lgan diskret o‘yinda quvish masalasi yechilishini kafolatlovchi yetarli shartlarni aniqlash hamda o‘yinning animatsion modelini qurish.

Tadqiqotning obyekti – boshqaruv funksiyalari turli chegaralanishli dinamik o‘yinlardir.

Tadqiqotning predmeti – boshqaruv funksiyalari turli chegaralanishli geometrik, integral va Langenhop tipidagi dinamik o‘yinlarning differensial va diskret quvish–qochish masalalari, ularni ifodalovchi differensial tenglamalar, tengsizliklar hamda ularning yechimlarini qurish strategiyalaridir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda diskret va differensial o‘yinlardagi quvish masalalari uchun П-strategiyadan, qochish masalalari uchun esa kechikkan boshqaruvdan foydalanilgan bo‘lib, bu jarayonda matematik analiz, dinamik o‘yinlar nazariyasi, differensial tenglamalar, funksional analiz hamda optimal boshqaruv nazariyasining asosiy tushuncha va teoremalariga tayanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshqaruv funksiyalari geometrik chegaralanishga ega bo‘lgan, ko‘p quvlovchi va bitta qochuvchili diskret o‘yinda quvish masalasini yechish uchun quvlovchilar tomonidan qo‘llaniladigan parallel yaqinlashish usuli (П-strategiya) asosida kafolatlovchi yetarli shartlar topilib, o‘yinning 2D animatsion modeli ishlab chiqilgan;

boshqaruv funksiyalari yig‘indi chegaralanishga ega bo‘lgan, sodda harakatli diskret o‘yinda quvish masalasi yechilishi uchun tutishni kafolatlovchi yetarli shartlar quvlovchi tomonidan qo‘llaniladigan parallel yaqinlashish usuli (П-strategiya)dan foydalanib topilgan;

boshqaruv funksiyalari Langenhop tipidagi chegaralanishga ega bo‘lgan differensial o‘yinda qochish masalasi yechilishi uchun qochuvchining kechikkan boshqaruvi orqali aniqlangan yetarli shartlarda o‘yinchilar orasidagi masofaning quyi chegarasi topilgan;

boshqaruv funksiyalari Langenhop tipidagi chegaralanishga ega bo‘lgan diskret o‘yinda quvish masalasining П-strategiya yordamida topilgan yechimi asosida o‘yinning 2D animatsion modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

optimal boshqaruv va dinamik o‘yinlar nazariyasi asoslarining amaliy tatbiqlariga bevosita aloqadorligi nuqtayi nazaridan differensial va rekurrent tenglamalar orqali ifodalanuvchi ziddiyatli boshqaruv masalalari hal qilingan. Olingan nazariy natijalar asosida obyektlarning dinamik harakatlarini vizual tarzda kuzatish imkonini beruvchi animatsion modellar ishlab chiqilgan bo‘lib, robototexnika, xavfsizlik tizimlari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlariga oid masalalar ushbu modellar yordamida tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Matematik optimal boshqaruv nazariyasi asoslari, oddiy differensial tenglamalar nazariyasi, funksional va qavariq tahlil, matematik tahlil, dinamik o‘yinlar nazariyasining quvish-qochish muammolariga oid teorema va lemmalardan foydalanilgan. Tadqiqot ishida bayon qilingan natijalar matematikadagi qat’iy yondashuvlar asosida isbotlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati boshqaruv funksiyalariga geometrik, yig‘indi va Langenhop tipidagi chegaralanishlar qo‘yilgan holda diskret va differensial o‘yinlarda quvish–qochish masalalarining optimal yechimlarini ta’minlaydigan strategiyalarning qurilishi va ularning amaliyotga tatbiq etilishi bilan belgilanadi. Keltirilgan natijalar boshqaruv va dinamik o‘yinlar nazariyalaridagi klassik metodlarni takomillashtirish, shuningdek ularning amaliyotdagi tadbiqlari bilan bog‘liq muammolarning yechimlarini aniqlashda qo‘llanilishi bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa quvish–qochish masalalaridagi diskret harakatlarni vizuallashtiruvchi 2D animatsion modellarni qurish va amalga tatbiq etish orqali ifodalanadi. Ushbu modellar nazariy natijalarni vizualizatsiya qilish orqali tasdiqlash imkonini beradi hamda robototexnika, xavfsizlik tizimlari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarida qo‘llash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshqaruv funksiyalari turli chegaralanishli dinamik o‘yinlar va ularning animatsion modellari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

boshqaruv funksiyalariga geometrik chegara qo‘yilgan ko‘p quvlovchilardan va bir qochuvchidan iborat diskret o‘yin masalasining animatsion modeli uchun yaratilgan kompyuter dasturidan ФЗ-201905171 raqamli “G‘ovak muhitlarda suyuqlik va gazlarni anomal filtrlash jarayonini tadqiq etish uchun gidrodinamik modellar va samarali algoritmlar yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada suvli qatlamlar bilan chegaralangan gaz konlarini kompleks tadqiq qilishda flyuidlar filtratsiya jarayonining kompyuter modelini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining 2025-yil 25-iyundagi 2/272-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, koordinatalar bo‘yicha ajralish va differensial haydash usullariga asoslangan g‘ovak muhitdagi filtratsiya masalalarini hal qilish va ularning sonli algoritmlarini yaratish imkonini bergan;

boshqaruv funksiyalari geometrik va Langenhop tipidagi chegaralanishli dinamik o‘yin masalalarini yechishda optimal yaqinlashish strategiyalari (П-strategiyalar) asosida masalalar yechimlarini kafolatlovchi shartlardan hamda masalalarni tutish jarayonini vizual tarzda ifodalovchi yaratilgan animatsion modellaridan OT-F4-33 raqamli “Differensial tenglamalar bilan tavsiflanuvchi ziddiyatli boshqaruv uchun yangi usullarni ishlab chiqish va ularning sonli tadbiqi” mavzusidagi fundamental loyihada boshqaruv funksiyalari turli chegaralanishli dinamik o‘yin masalalarini hal etishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 18-iyundagi 04/11-7621-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Langenhop va geometrik chegaralarga ega diskret tenglamalar bilan ifodalangan ziddiyatli holat jarayonlarini boshqarish masalalari uchun yangi usullarni ishlab chiqish, ularni sonli hal etish va natijalarni amaliy jihatdan to‘g‘riligini tasdiqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot davomida olingan natijalar 16 ta ilmiy-amaliy anjumanda muhokama qilingan bo‘lib, ulardan 10 tasi xalqaro, 6 tasi esa respublika miqyosidagi konferensiyalardir.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot davomida jami 26 ta ilmiy ish nashr etilgan. Ulardan 7 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan fan doktori ilmiy darajasini olish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda chop etilgan. Xususan, ushbu ishlarning 2 tasi xalqaro ilmiy jurnallarda, 5 tasi respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarda nashr qilingan, 16 tasi esa ilmiy anjuman tezislari shaklida taqdim etilgan.

Shuningdek, ushbu tadqiqot doirasida yaratilgan dasturiy mahsulotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan “EHM uchun dastur” sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, ularga 3 ta guvohnoma berilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 109 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarning tahlili berilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi ochib berilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi, shuningdek, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob **“Boshqaruvlari geometrik chegaralanishli diskret o‘yinlar va ularning animatsion modellari”** deb nomlanadi va boshqaruv funksiyalari geometrik chegaralanishga ega ikkita diskret quvish masalalari o‘rganilgan.

$\mathbb{R}^d$ fazoda ($d \geq 2$), ikkita obyekt — quvuvchi P va qochuvchi E — qadamma-qadam harakatlari quyidagi rekurrent tenglamalar bilan ifodalanadi:

$$P\colon\ x_n = x_{n-1} + u, \quad E\colon\ y_n = y_{n-1} + v, \quad n = 1,2,\dots . \tag{1}$$

Bu yerda x_n va y_n mos ravishda P va E o‘yinchilarining n-qadamdagi holatlarini, x_0 va y_0 esa ularning boshlang‘ich holatlarini ifodalaydi va $x_0 \neq y_0$. u va v mos ravishda P va E obyektlarning boshqaruv parametrlari bo‘lib, ular $\mathbb{R}^d$ da aniqlangan o‘zgarmas vektorlar ketma-ketligi $\{u_n\}$ va $\{v_n\}$ elementlari sifatida tanlanadi hamda quyidagi geometrik chegaralanishga (qisqacha G-chegaralanish) bo‘ysunadi:

$$u_n \in S_\alpha \coloneqq \{u \in \mathbb{R}^d\colon \|u\| \leq \alpha\},\ v_n \in S_\beta \coloneqq \{v \in \mathbb{R}^d\colon \|v\| \leq \beta\}, \tag{2}$$

bu yerda $\alpha > 0, \beta \geq 0$, S_α va S_β esa $\mathbb{R}^d$ da markazi koordinata boshida joylashgan Yevklid sharlaridir.

Boshqaruvlar ketma-ketlilari (2) ni rekurrent tenglamalar (1) ga qo‘yib, quyidagi ko‘rinishdagi yechimni, ya’ni $\mathbb{R}^d$ fazodagi P va E ob’yektlarning izlarini hosil qilamiz:

$$P\colon\ x_n = x_0 + \sum_{i=1}^{n} u_i\,, \quad E\colon\ y_n = y_0 + \sum_{i=1}^{n} v_i\,, \quad n = 1,2,\dots . \tag{3}$$

Quvlovchining maqsadi — biror $N \in \mathbb{N}$ da $x_N = y_N$ tenglikka erishish (Discrete Pursuit Problem (qisqacha DPP) — diskret quvish masalasi), qochuvchining maqsadi esa barcha $n \in \mathbb{N}$ uchun $x_n \neq y_n$ tengsizlikni saqlab qolishdir (Discrete Evasion Problem (qisqacha DEP) — diskret qochish masalasi).

Yangi o‘zgaruvchi $z_n = x_n - y_n$ kiritamiz. Shunda rekurrent tenglamalar (1) quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi

$$z_n = z_{n-1} + u - v, \tag{4}$$

yechimilar (3) esa quyidagicha yoziladi:

$$z_n = z_0 + \sum_{i=1}^{n} (u_i - v_i)\,, \qquad z_0 = x_0 - y_0.$$

Qisqalik uchun, boshqaruv funksiyalari (2) geometrik chegaralanishlarga ega bo'lgan va harakatlari (1) yoki (4) rekurrent tenglamalar orqali ifodalanadigan diskret quvish–qochish masalasini *G-o'yin* (G-chegaralanishli o'yin) deb ataymiz.

1 - ta'rif. Quyidagi boshqaruvlar ketma-ketligini

$$\boldsymbol{u}_n = \begin{cases} \boldsymbol{u}_n^A, & \text{agar } |z_{n-1}| > \mu(v_n), \\ \boldsymbol{u}_n^F, & \text{agar } |z_{n-1}| \le \mu(v_n), \end{cases} \tag{5}$$

G-o'yin uchun DPPning Π_G*-strategiyasi* deb ataymiz, bu yerda

$$\begin{gathered} \boldsymbol{u}_n^A = v_n - \mu(v_n)\xi_0, \\ \boldsymbol{u}_n^F = v_n - z_{n-1}, \\ \mu(v_n) = \langle v_n, \xi_0 \rangle + \sqrt{\langle v_n, \xi_0 \rangle^2 + \alpha^2 - |v_n|^2}, \qquad \xi_0 = z_0/|z_0|, \end{gathered} \tag{6}$$

bu yerda $\langle v_n, \xi_0 \rangle - v_n$ va ξ_0 vektorlarining $\mathbb{R}^d$dagi skalyar ko'paytmasi $n = 1,2,\dots$. Kelgusi o'rinlarda $\boldsymbol{u}_n^A$ ketma-ketligi *yaqinlashish strategiyasi,* $\boldsymbol{u}_n^F$ ketma-ketligi *yakuniy (yoki tugallovchi) strategiya* deb ataymiz.

1-lemma. Agar $\alpha \ge \beta$ bo'lsa, unda har bir juftlik $(v_n, z_{n-1}) \in S_\beta \times \mathbb{R}^d$ uchun quyidagilar o'rinli:

a) $\boldsymbol{u}_n$ ketma-ketligi aniqlangan bo'ladi;

b) har qanday $v_n \in S_\beta$ uchun $\alpha - \beta \le \mu(v_n) \le \alpha + \beta$ tengsizliklar bajariladi.

1-teorema. G-o'yin uchun DPPda $\alpha > \beta$ bo'lsin va quvlovchi Π_G-strategiyani (5) qo'llasin. Unda:

1) Agar $i = 1,2,\dots,n$ qadamlar uchun $|z_{i-1}| > \mu(v_i)$ tengsizlik bajarilsa, unda barcha $i = 1,2,\dots,n$ qadamlar uchun $z_i \ne 0$ bo'ladi;

2) Agar n-qadamda $|z_n| \le \mu(v_{n+1})$ tengsizlik bajarilsa, $n+1$-qadamda qochuvchi tutib olinadi, ya'ni $z_{n+1} = 0$.

2-lemma. Agar qandaydir n-qadamda $0 < |\mathrm{z_n}| \le \alpha - \beta$ tengsizlik bajarilsa, u holda quvlovchi yakuniy strategiya (6)ni qo'llagan holda quvishni $n+1$-qadamda yakunlaydi.

2-teorema. G-o'yin uchun DPPda $\alpha > \beta$ bo'lsin. Unda quvlovchi Π_G-strategiya (5)ni qo'llab, quvishni

$$N(z_0) = \left[\frac{|z_0|}{\alpha - \beta}\right] + 1$$

qadamdan kechikmay yakunlaydi. Bu yerda $[\cdot]$ belgi, qavs ichidagi sonning butun qismini bildiradi.

1.2-paragrafda biz Pshenichniy masalasining[*] diskret analogini — o'rganamiz, ya'ni $\mathbb{R}^d$ fazoda bir nechta quvlovchi P^1, P^2,..., P^m tomonidan bitta qochuvchini E diskret quvush masalasini o'rganamiz. O'yinchilar harakati qadamma-qadam harakatni ifodalovchi quyidagi rekurrent tenglamalar bilan beriladi:

$$P^i\colon\ x_n^i = x_{n-1}^i + u^i,\ \ i \in I_m = \{1,2,3,\dots,m\};\ E\colon\ y_n = y_{n-1} + v, \tag{7}$$

[*] B.N. Pshenichnii. Simple pursuit by several objects. Cybernetics and System Analysis, 1976.

bu yerda $n = 1,2, \ldots$. Boshlang‘ich holatlar farqli deb qaraladi, ya’ni barcha $i \in I_m$ uchun $x_0^i \neq y_0$. u^i va v mos ravishda quvlovchilar P^i va qochuvchi E ning boshqaruv parametrlari bo‘lib, ular $\mathbb{R}^d$ da aniqlangan o‘zgarmas vektorlar ketma-ketligi $\{u_n^i\}_{n\in N}$ va $\{v_n\}_{n\in N}$ elementlari sifatida tanlanadi va quyidagi geometrik chegaralanishlarni (qisqacha G-chegaralanish) qanoatlantiradi:

$$|u_n^i| \leq 1, \;\; i \in I_m; \;\;\; |v_n| \leq 1. \tag{8}$$

Demak, barcha o‘yinchilarning boshqaruv imkoniyatlari teng deb qaraladi.

Quvlovchilarning maqsadi — qandaydir chekli N qadamda hech bo‘lmaganda biror $j \in I_m$ uchun $x_N^j = y_N$ tenglikka erishish (Group Discrete Pursuit Problem, (qisqacha GDPP)— guruhli diskret quvish masalasi), qochuvchining maqsadi esa barcha qadamlar davomida barcha $i \in I_m$ uchun $x_n^i \neq y_n$ tengsizlikni saqlab qolishdir (Group Discrete Evasion Problem (qisqacha GDEP) — guruhli diskret qochish masalasi).

1.1-paragrafdagi kabi, bu yerda ham diskret quvish maslasini soddalashtirish uchun yangi o‘zgaruvchilar kiritiladi $z_n^i = x_n^i - y_n$, $i \in I_m$ va $z_0^i = x_0^i - y_0$. bunda (7)-tenglamalardan quyidagi rekurrent tenglamalar hosil bo‘ladi

$$z_n^i = z_{n-1}^i + u_n^i - v_n, \; i \in I_m. \tag{9}$$

Ushbu (9) tenglamalarning yechimi quyidagi ko‘rinishga ega

$$z_n^i = z_0^i + \sum_{k=1}^{n} (u_k^i - v_k)\,, i \in I_m.$$

Qisqalik uchun, boshqaruv funksiyalari (8) geometrik chegaralanishlarga ega bo‘lgan va harakatlari (7) yoki (9) rekurrent tenglamalar bilan ifodalanadigan guruhli diskret quvish–qochish masalasini *G-o‘yin* (G-chegaralanishli o‘yin) deb ataymiz.

2-ta’rif. Quyidagi boshqaruvlar ketma-ketligini

$$\boldsymbol{u}_n^i = \begin{cases} \boldsymbol{u}_n^{A_i}, & \text{agar } |z_{n-1}^i| > \mu_i(v_n), \\ \boldsymbol{u}_n^{F_i}, & \text{agar } |z_{n-1}^i| \leq \mu_i(v_n), \end{cases} \tag{10}$$

G-o‘yin uchun GDPPda i-quvlovchining Π_G^i*-strategiya*si deb ataymiz, bu yerda

$$\boldsymbol{u}_n^{A_i} = v_n - \mu_i(v_n)\xi_0^i, \qquad \boldsymbol{u}_n^{F_i} = v_n - z_{n-1}^i,$$

$$\mu_i(v_n) = \langle v_n, \xi_0^i \rangle + \sqrt{\langle v_n, \xi_0^i \rangle^2 + 1 - |v_n|^2}, \quad \xi_0^i = \frac{z_0^i}{|z_0^i|}, \quad n = 1,2,\ldots, \quad i \in I_m.$$

3-teorema. G-o‘yin uchun GDPPda barcha quvlovchilar Π_G^i-strategiyani (10) qo‘llasin. Unda:

1) Agar $k = 1,2,\ldots,n$ qadamalarda barcha $i \in I_m$ uchun $|z_{k-1}^i| > \mu_i(v_k)$ bajarilsa, u holda $k = 1,2,\ldots,n$ qadamlarda barcha $i \in I_m$ uchun $z_k^i \neq 0$ bo‘ladi;

2) Agar qandaydir $j \in I_m$ uchun n -qadamda $|z_n^j| \leq \mu_j(v_{n+1})$ bajarilsa, u holda $n+1$ - qadamda P^j quvlovchi quvishni yakunlaydi, ya’ni $z_{n+1}^j = 0$.

4-teorema. *(Pshenichniy teoremasining diskret analogi)* Agar G-o'yin uchun GDPPda boshlang'ich holatlar $z_0^i,\ i \in I_m$ uchun quyidagi shart bajarilsa

$$0 \in int\, conv\{\xi_0^1, \xi_0^2, \ldots, \xi_0^m\},$$

u holda Π_G^i-strategiyalar (10) yordamida quvlovchilar quvishni

$$N(z_0^1, z_0^2, \ldots, z_0^m) = \left[\sum_{i=1}^{m} \left|z_0^i\right| / \gamma\right] + 1,$$

qadamdan kechikmay yakunlaydi, bu yerda

$$\gamma = \frac{2\delta}{1+2\delta} \text{ va } \delta = \min_{|p|=1} \max_{i \in I_m} \langle p, \xi_0^i \rangle > 0.$$

Ikkinchi bob "**Boshqaruvlari yig'indi chegaralanishli diskret o'yin va uning animatsion modeli**" deb nomlanib, oddiy harakatli diskret o'yinning yig'indi chegaralanishli holatini tadqiq etishga bag'ishlangan.

Bunda *P* va *E* obyektlarning harakati rekurrent tenglamalar (1) orqali ifodalanadi. Quvuvchi va qochuvchining boshqaruv ketma-ketliklari $\{\boldsymbol{u}_i\}_{i=1}^{\infty}$, $\boldsymbol{u}_i \in \mathbb{R}^d$ va $\{\boldsymbol{v}_i\}_{i=1}^{\infty}$, $\boldsymbol{v}_i \in \mathbb{R}^d$ mos ravishda quyidagi yig'indi chegaralanishlarni (qisqacha S-chegaralanish) qanoatlantiradi:

$$\| \boldsymbol{u} \|_{\ell_2} = \sqrt{\sum_{i=1}^{\infty} |\boldsymbol{u}_i|^2} \le \rho_0, \quad \| \boldsymbol{v} \|_{\ell_2} = \sqrt{\sum_{i=1}^{\infty} |\boldsymbol{v}_i|^2} \le \sigma_0, \tag{11}$$

bu yerda $\rho_0 > 0$ va $\sigma_0 \ge 0$.

Qisqalik uchun, o'yinchilarning boshqaruv funksiyalari (11) yig'indi chegaralanishlarga ega bo'lgan va harakatlari (1) yoki (4) rekurrent tenglamalar orqali ifodalanadigan diskret quvish–qochish masalasini *S-o'yin* (S-chegaralanishli o'yin) deb ataymiz.

3-ta'rif. Quyidagi boshqaruvlar ketma-ketligini

$$\boldsymbol{U}_n^* = \begin{cases} \boldsymbol{u}_n^*, & \text{agar} \quad |\boldsymbol{z}_{n-1}| > \eta(v_n), \\ \boldsymbol{u}_n^{**}, & \text{agar} \quad |\boldsymbol{z}_{n-1}| \le \eta(v_n), \end{cases} \tag{12}$$

S-o'yin uchun DPPning Π_S-*strategiya*si deb ataymiz, bu yerda

$$\boldsymbol{u}_n^* = v_n - \eta(v_n)\xi_0, \quad \boldsymbol{u}_n^{**} = v_n - z_{n-1},$$
$$\eta(v_n) = max\{0, \delta_0^2/|z_0| + 2\langle v_n, \xi_0 \rangle\},$$

$\xi_0 = \frac{z_0}{|z_0|}$, $z_0 = x_0 - y_0$, $\delta_0^2 = \rho_0^2 - \sigma_0^2$ va $\langle v_n, \xi_0 \rangle - v_n$ va ξ_0 vektorlarining $\mathbb{R}^d$dagi skalyar ko'paytmasi $n = 1,2,\ldots$. Kelgusi o'rinlarda $\boldsymbol{u}_n^*$ ketma-ketligi *yaqinlashish strategiyasi,* $\boldsymbol{u}_n^{**}$ ketma-ketligi *yakuniy (yoki tugallovchi) strategiya* deb ataymiz.

3-lemma. Agar qandaydir n-qadamda $|z_{n-1}| > \eta(v_n)$ tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda n-qadamda $|\boldsymbol{u}_n^*|^2 = |v_n|^2 + \frac{\delta_0^2}{|z_0|}\eta(v_n)$ tenglik bajariladi.

4-ta'rif. S-o'yinda quyidagi ketma-ketliklar

$$\rho_{n-1}^2 = \rho_0^2 - \sum_{i=1}^{n-1} |\boldsymbol{U}_i^*|^2, \quad \sigma_{n-1}^2 = \sigma_0^2 - \sum_{i=1}^{n-1} |\boldsymbol{v}_i|^2,$$

mos ravishda P va E obyektlarning joriy resurslari, quyidagi ketma-ketlik esa

$$\delta_{n-1}^2 = \rho_{n-1}^2 - \sigma_{n-1}^2 = \delta_0^2 - \sum_{i=1}^{n-1} (|\mathbf{U}_i^*|^2 - |\mathbf{v}_i|^2),$$

har ikki obyektlarning joriy resurslari farqi deb ataymiz.

5-teorema S-o'yin uchun DPPda $\rho_0 > \sigma_0$ bo'lsin va quvlovchi Π_S-strategiyani (12) qo'llasin. Unda:

1) Agar $k = 1,2, \dots, n$ qadamlar uchun $|z_{k-1}| > \eta(v_k)$ tengsizlik bajarilsa, u holda barcha $k = 1,2, \dots, n$ qadamlar uchun $z_k \neq 0$ va $z_k = z_0 h_k$, $\delta_k^2 = \delta_0^2 h_k$, $0 < h_k \leq 1$ bajariladi, bu yerda

$$h_k = 1 - \frac{1}{|z_0|} \sum_{i=1}^{k} \eta\,(v_i), \quad k = 1,2, \dots, n.$$

2) Agar n-qadamda $|z_{n-1}| \leq \eta(v_n)$ tengsizlik bajarilsa, u holda n-qadamda qochuvchi tutiladi, ya'ni $z_n = 0$.

6-teorema. S-o'yin uchun DPPda $\rho_0 > \sigma_0$ bo'lsin. Unda quvlovchi Π_S-strategiyani (12) qo'llab, tutishni

$$N(z_0) = \left[\left(\frac{|z_0|}{\rho_0 - \sigma_0} \right)^2 \right] + 1$$

qadamdan kechikmay amalga oshiradi.

Uchinchi bob "**Boshqaruv funksiyalari Langenhop tipidagi chegaralanishga ega bo'lgan dinamik o'yinlar va ularning animatsion modellari**" deb nomlanadi. Bobda o'yinchilar boshqaruv funksiyalariga qo'yilgan Langenhop tipidagi chegaralanishga ega bo'lgan differensial va diskret quvish–qochish o'yinlari o'rganiladi.

Dastlab $\mathbb{R}^d$ fazoda P va E obyektlarning harakati quyidagi differensial tenglamalar bilan ifodalanadigan qochish masalasi ko'rib chiqilgan.:

$$P: \dot{x} = u, \ x(0) = x_0; \quad E: \dot{y} = v, \ y(0) = y_0, \tag{13}$$

bu yerda $x, y, u, v \in \mathbb{R}^d, d \geq 2$ va $x_0 \neq y_0$ — boshlang'ich holatlar. Boshqaruvlar $u(t)$ va $v(t)$ mos ravishda P va E obyektlarning tezlik vektorlari bo'lib, ular $[0, +\infty)$ oraliqda aniqlangan o'lchanuvchi funksiyalar bo'lishi talab etiladi: $u(\cdot): [0, +\infty) \to \mathbb{R}^d$ va $v(\cdot): [0, +\infty) \to \mathbb{R}^d$.

Langenhop tipidagi chegaralanish (qisqacha, *La*-chegaralanish):

$$|u(t)|^2 \leq \rho^2 - 2k \int_0^t |u(s)|^2 ds, |v(t)|^2 \leq \sigma^2 - 2k \int_0^t |v(s)|^2 ds, t \geq 0, \tag{14}$$

bu yerda $k > 0$, ushbu sinflarni mos ravishda U_{La} va V_{La} bilan belgilaymiz.

Geometrik chegaralanish (qisqacha, *G*-chegaralanish):

$$|u(t)| \le \rho e^{-kt}, \quad |v(t)| \le \sigma e^{-kt}, \qquad t \ge 0,$$

bunday sinflarni mos ravishda U_G, V_G bilan belgilaymiz.

Integral chegaralanish (qisqacha, *I*-chegaralanish):

$$\int_0^t |u(s)|^2 ds \le \frac{\rho^2}{2k}(1 - e^{-2kt}), \int_0^t |v(s)|^2 ds \le \frac{\sigma^2}{2k}(1 - e^{-2kt}), \qquad t \ge 0,$$

bunday sinflarni mos ravishda U_I ,V_I bilan belgilaymiz.

La-, *G*- va *I*-chegaralanishlarni qanoatlantiradigan boshqaruv funksiyalari sinflari orasidagi aniqlangan munosabatga asoslanib, P va E obyektlar uchun uchta ruxsat etilgan boshqaruv sinfi kiritamiz. Agar U (mos ravishda V) U_{La}, U_G, U_I (mos ravishda V_{La}, V_G, V_I) sinflaridan biri bo‘lsa, u holda $u(\cdot) \in U$ va $v(\cdot) \in V$ uchun o‘yinchilarning harakatlari quyidagicha beriladi:

$$P: x(t) = x_0 + \int_0^t u(s)\, ds, \qquad E: y(t) = y_0 + \int_0^t v(s)\, ds, \;\; t \ge 0.$$

Quvlovchining maqsadi — qandaydir $t^* > 0$ da $x(t^*) = y(t^*)$ tenglikni amalga oshirish, qochuvchining maqsadi esa har qanday $t \ge 0$ uchun $x(t) \ne y(t)$ tengsizlikka erishish.

Soddalik uchun, (13) tenglamalar bilan harakatlanadigan hamda boshqaruv funksiyalari *La*-chegaralanishli (14) quvish–qochish masalasini *La*-o‘yin (*La*-chegaralanishli o‘yin) deb ataymiz.

4-lemma. $U_G \subset U_{La} \subset U_I, \quad V_G \subset V_{La} \subset V_I.$

5-ta’rif. *La*-o‘yinda $\sigma \ge \rho$ bo‘lsin. Unda qochuvchi uchun E_{La}-strategiya deb quyidagi funksiyaga aytamiz

$$\boldsymbol{v}_{La}(t, u_\varepsilon(t)) = \begin{cases} 0, & \text{agar } 0 \le t < \varepsilon, \\ -\sqrt{|u(t-\varepsilon)|^2 + \theta e^{-2k(t-\varepsilon)}}\xi_0, & \text{agar } t \ge \varepsilon, \end{cases} \tag{15}$$

bu yerda

$$u_\varepsilon(t) = \begin{cases} 0, \text{ agar } 0 \le t < \varepsilon, \\ u(t-\varepsilon), \text{ agar } t \ge \varepsilon, \end{cases} u_\varepsilon(t) \in \mathbb{R}^n, \theta = \sigma^2 - \rho^2, \xi_0 = z_0/|z_0|.$$

6-ta’rif. E_{La}-strategiya (15) qochuvchi uchun yutuqli deb ataymiz, agar har qanday $u(\cdot) \in U_{La}$ uchun:

a) Koshy masalasi

$$\dot{z} = u(t) - \boldsymbol{v}_{La}\big(t, u_\varepsilon(t)\big), \qquad z(0) = z_0,$$

yechimida barcha $t \ge 0$ uchun $z(t) \ne 0$ bo‘lsa, ya’ni quvish hech qachon yakunlanmasa;

b) $[0, t]$ vaqt oralig‘ida barcha $t \ge 0$ uchun $\mathbf{v}_{La}(t, u_\varepsilon(\cdot)) \in V_{\mathrm{La}}$ bajarilsa.

